

INDIVIDUAL O'QITISH TEKNOLOGIYALARI – BOSHLANG'ICH TA'LIMNI RIVOJLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA

Qobilova O'g'ilxon Abdubannonovna

Farg'onan viloyati Furqat tumani 2-IDUMning boshlang'ich ta'lism o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada individual o'qitish texnologiyalari, ularning afzalliklari, o'quv topshiriqlari va ularning mohiyati, individual o'qitish texnologiyalari boshlang'ich ta'lism rivojlantiruvchi muhim omil ekanligining nazariy asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Individual o'qitish texnologiyalari, boshlang'ich ta'lism, shaxsni rivojlantirish, shakllantirish, metodika, ta'lism jarayoni.

ИНДИВИДУАЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ – КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются индивидуальные технологии обучения, их преимущества, учебные задачи и их сущность, а также теоретические основы индивидуальных технологий обучения как важного фактора развития начального образования.

Ключевые слова: Индивидуальные технологии обучения, начальное образование, развитие личности, формирование, методика, образовательный процесс.

INDIVIDUAL TEACHING TECHNOLOGIES – AS A FACTOR FOR DEVELOPING PRIMARY EDUCATION

ABSTRACT

This article discusses individual learning technologies, their advantages, educational tasks and their essence, and the theoretical foundations of individual learning technologies as an important factor in the development of primary education.

Keywords: Individual learning technologies, primary education, personality development, formation, methodology, educational process.

KIRISH

Ta'larning globallashuvi, o'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining samarali qo'llanilayotgani ta'lism muassasalarida, xususan boshlang'ich sinflarda o'qitish sifatining oshishiga sabab bo'lmoqda. Zamonaviy ta'lism jarayonining faol sub'yektlari o'qituvchi va o'quvchilar bo'lib,

ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu doirasida nazariy va amaliy bilimlarni puxta o‘zlashtirishiga imkoniyat yaratadi.

Ertangi kuniga befarq bo‘lmagan, yorug‘ va farovon kelajakni yosh avlod istiqbolida ko‘rgan millat ta’lim-tarbiyaga alohida e’tibor qaratadi. Bilim qanchalik mustahkam bo‘lsa, o‘quvchi dunyoqarashi, tafakkur doirasi shunchalik takomillashadi va rivojlanadi. Shu bois uzlusiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta’limga qo‘yilayotgan davlat talablariga muvofiq, o‘quv-tarbiya jarayonining samardorligini oshirish, ilm-fanning so‘ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o‘z burchi hamda javobgarligini his etadigan shaxsni kamolga yetkazish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Zero, O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsyepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni va undan ko‘zlangan maqsad ham yuqoridagi dolzarb vazifalarning amaliy yechimida ustuvor ahamiyat kasb etadi[1].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma’lumki, o‘quvchining mavjud imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishni ta’minalash – zamonaviy o‘quv jarayonida jadallahib borayotgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning talabidir. Bu borada individual o‘qitish texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o‘qitish yo‘llari, usullari tanlanadi va turli o‘quv-uslubiy, psixologik, pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali amalga oshiriladi.

Individual o‘qitish texnologiyasining afzalligi – pedagogik jarayonning o‘quvchi qobiliyatlariga moslashuvchanligi imkoniyatidir. Bunda o‘quvchini bilim olish darajasining doimiy monitoringi amalga oshiriladi, zaruriy tuzatishlar kiritish natijasida maqbul pedagogik jarayon tashkil etiladi va o‘ziga xos individual yondashuvga amal qilinadi. “Individual yondashish – bu pedagogik tamoyilga ko‘ra, pedagogik jarayonda o‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida o‘quvchining rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.

Individual ta’lim texnologiyalari shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning bir turi bo‘lib, uning o‘ziga xos quyidagi jihatlari mavjud:

- o‘quvchining o‘qitish jarayonidagi muvaffaqiyatini ta’minlovchi omillar (o‘quvchilarning fikrlash, tafakkur qilish, ko‘nikma va malakalarini egallashdagi xatoliklarni bartaraf etish)ni hisobga olish;
- o‘quvchilarda o‘zini o‘zi mustaqil baholash malakalarini tarkib toptirish;

- alohida iqtidor va layoqatga ega o‘quvchilar bilan ishlashga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish, dars va darsdan tashqari ishlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish;
- ta’lim jarayonida zamonaviy texnik vositalar, shu jumladan, axborot texnologiyalarini faol qo‘llash;
- oilada xulq-atvorning ma’lum me’yorlariga rioya etmaganlik va inobatga olmaganlik sabablari hamda bu borada ota-onalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatoliklar ustida individual ishslash hamda bartaraf etish va hk.

Individual ta’lim texnologiyasi – ta’lim jarayonida o‘qituvchining faqatgina bir nafar o‘quvchi bilan yoki o‘quvchining ta’lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, televide niye, radio va boshqa axborot texnologiyalar) bilan o‘zaro hamkorligi asosida o‘quv materiallarining o‘zlashtirilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan ta’lim[3].

Mazkur o‘qitish texnologiyasini amaliyotga tatbiq etishda individual o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratiladi. Chunki o‘quv topshiriqlari yordamidagina o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

O‘quv topshiriqlari – o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta’limiy vazifalar yig‘indisi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlardan o‘quvchini faol harakatga undaydigan omillardan biri – o‘quv topshiriqlari hisoblanadi. Darsdan ko‘zlangan maqsadlar tizimi ularning bajarilishini ta’minlovchi harakatlar tizimi bilan uzviy bog‘lanadi. Shu sababli o‘quv topshiriqlarini to‘g‘ri tanlash va shakllantirish maqsadga muvofiqdir[2].

Individual o‘quv topshiriqlarini shakllantirishda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

- darsning maqsadidan kelib chiqib tuzilishi;
- mavzuning murakkablik darajasidan kelib chiqib tuzilishi;
- o‘quvchining qiziqlishi, o‘ziga xos xususiyatlarini (sabr, ijod, iroda, diqqat, o‘zaro ta’sir qilish, kirishimlilik va boshqalar) inobatga olinishi;
- bajarilgan ish bo‘yicha o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash imkoniyatining mavjudligi;
- uy vazifalarini bajarishda bilish qobiliyatlарini aniqlash;
- birgalikda ishslashda o‘quvchilarning o‘zaro hamjihatligini ko‘zlagan topshiriqlar;
- guruhlarda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga vazifalarni, o‘rnini bo‘lib bergen holda ijodiy topshiriqni bajarish. Masalan: guruh sardori, ekspertlar, fikr bildiruvchilar va boshq.;

– ijodiy rolli o‘yinlar tashkil qilish orqali individual va umumiy ijodiy natijaga erishish va hk. ga qaratilgan bo‘lishi kerak).

Quyida o‘quv topshiriqlaridan ayrim misollar keltirib o‘tamiz:

1-topshiriq

№	Qatorlarda umumiy xususiyati bir xil bo‘lgan so‘zlar berilgan bo‘lib, ular ichida begona (unga aloqasi bo‘lmagan) so‘z ham mavjud. Uni ajrating	Begona so‘z
1	CHumchuq, kabutar, qaldirg‘och, laylak, sichqon	sichqon
2	Uzum, gilos, olma, o‘rik, shaftoli, terak	terak
3	Maktab, o‘quvchi, o‘qituvchi, stol, stul, doska, zavod	zavod
4	Ota-onা, bobo-buvi, aka-uka, opa-singil, baland-past	baland-past

2- topshiriq

Berilgan qo‘shimchalar orasida shunday mustaqil so‘zlarni qo‘yingi, natijada atamalar hosil bo‘lsin:	
TAD . . . KOR	sanoq soni yordamida hosil qilinuvchi ma’lum soha egasi (tadbirkor)
DO. . . MAND	Asalarining nayzasi ma’nosida ishlataluvchi so‘z yordamida hosil qilinuvchi ulug‘ inson, ulamo (donishmand)

XULOSA

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, yuqoridagi kabi ta’limiy texnologiyalarni qo‘llagan holda darslarni tashkil etish o‘quvchilarni nafaqat mavzu yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishni, balki darsda faol ishtirok etish, diqqatni jamlash, har bir topshiriqqa mas’uliyat bilan yondashish, shuningdek o‘zgalar fikrini hurmat qilish va tinglash kabi sifatlarni ham shakllantiradi. Bu borada o‘qituvchi har bir darsga ijodiy yondashishi, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishi, iqtidor va iste‘dodni rag‘batlantirish hamda aql-zakovotini ayamasliklari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsyepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.
2. Pedagogik texnologiya. N.X.Avliyakulov, N.N.Musaeva. –T.: Chopon NMIU,

2012. 90-bet.

3. Mardonov SH. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish. - Chirchiq, 2021.
4. Innovatsion ta'lif texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – Toshkent: 2015. 168-bet.